«TENGE BANK UZCARD KARTA EGALARI UCHUN 18 TA SOVRINLI O‘YIN» AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. «Tenge Bank Uzcard karta egalari uchun 18 ta sovrinli o‘yin» aksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) «Tenge Bank» ATBning (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi) Uzcard (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi Hamkori) bilan hamkorlikdagi reklama kampaniyasi doirasida Tashkilotchining Uzcard kartalari bo‘yicha naqdsiz operatsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladi.
2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi, ishtirokchilar Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xavf-xatarlarga duchor bo‘lmaydilar va u mazkur Qoidalarga muvofiq o‘tkaziladi. Aksiyani o‘tkazish tartib-taomili ishtirokchilar tomonidan to‘lov kiritilishi bilan bog‘liq emas va Aksiya sovrin jamg‘armasi faqat Tashkilotchi Hamkorining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.
3. Mazkur Qoidalar Aksiya o‘tkaziladigan shaxslar doirasini, yutish uchun imkoniyatlarni qo‘lga kiritish shartlarini, yutuqli o‘yinlarni o‘tkazish tartibini, shuningdek sovrinlarni olish tartibi, joyi va muddatlarini belgilaydi.
4. Mazkur Qoidalarning amal qilishi «Tenge Bank» ATBning barcha tarkibiy bo‘linmalariga: BXM, BXO, amaliyot boshqarmalari yoki bo‘limlari va hokazolarga tatbiq etiladi.
5. Tashkilotchi Hamkori bilan birgalikda «Tenge Bank» ATB Aksiya Tashkilotchisi hisoblanadi.
6. Tashkilotchining yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100027, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, O‘qchi MFY, I. Karimov ko‘chasi, 1, 1-b uy.
7. Tashkilotchi Aloqa markazining telefon raqami: 1245.

II. AKSIYANI O‘TKAZISH MUDDATLARI VA JOYI

8. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
9. Aksiyada inobatga olinadigan operatsiyalar 01.11.2026-yildan 20.12.2026-yilgacha (shu kuni ham) bo‘lgan davr uchun qabul qilinadi.
10. Sovrinlar o‘yini 2026-yil 4, 11, 18 va 25-dekabr kunlari o‘tkaziladi.
11. 20.12.2026-yildan keyin amalga oshirilgan operatsiyalar yutish uchun imkoniyat bermaydi.

III. AKSIYA ISHTIROKCHILARI

12. Aksiyada jismoniy shaxslar – «Tenge Bank» ATBning Private, Salary va Moment mahsulotlari bo‘yicha Uzcard karta egalari (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi) ishtirok etishlari mumkin.
13. Aksiyada Digital karta egalari, korporativ karta egalari, shuningdek «Tenge Bank» ATB xodimlari ishtirok etmaydilar.

IV. SOVRIN JAMG‘ARMASI

14. Aksiya sovrin jamg‘armasi 150 000 000 (bir yuz ellik million) so‘mni tashkil etadi va Tashkilotchi Hamkorining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi. Sovrin jamg‘armasi uchun Tashkilotchi xarajatlari nazarda tutilmagan.
15. Sovrin jamg‘armasi doirasida 18 ta sovrin (keyingi o‘rinlarda – Sovrinlar) o‘ynaladi:
    - iPhone 18 Pro Max – 1 dona;
    - iPhone 18 Pro – 3 dona;
    - Apple Watch SE 3 – 6 dona;
    - AirPods Pro 3 – 8 dona.

V. AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

16. Aksiyani o‘tkazish davrida Uzcard kartasi bo‘yicha amalga oshirilgan 50 000 so‘mdan boshlanadigan har bir xarid yoki P2P-o‘tkazma uchun yutishga 1 (bir) imkoniyat hisoblanadi.
17. Aksiyani o‘tkazish davrida yangi Uzcard kartasini ochganlik uchun qo‘shimcha 1 (bir) imkoniyat hisoblanadi.
18. Yangi va «harakatsiz» (uxlayotgan) kartalar uchun imkoniyatlar soni ikki baravar ko‘paytiriladi (×2). Faollashtirilgan, biroq 2026-yilning III choragida operatsiyalar amalga oshirilmagan karta «harakatsiz» hisoblanadi.
19. Naqd pul yechib olish, kartaga pul o‘tkazish (kirim qilish) va kreditlarni so‘ndirish uchun imkoniyatlar hisoblanmaydi.
20. To‘liq yoxud qisman bekor qilingan, qaytarilgan yoki storno qilingan (shu jumladan savdo nuqtasi, ekvayer-bank yoki to‘lov tizimi tashabbusi bilan) operatsiyalar yutish uchun imkoniyat bermaydi, ular uchun avval hisoblangan imkoniyatlar esa bekor qilinadi.
21. Yutuqli o‘yinlar tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda jonli efirda o‘tkaziladi. Har bir o‘yinda Ishtirokchilar tomonidan Aksiyani o‘tkazish davrida to‘plangan barcha imkoniyatlar ishtirok etadi.
22. G‘olib keyingi o‘yinlardan chiqib ketadi; qolgan Ishtirokchilarning imkoniyatlari saqlanib qoladi.
23. Yutuqli o‘yinlar jadvali va Sovrinlar:
    - 04.12.2026-y. (3 ta sovrin): Apple Watch SE 3 – 1 dona, AirPods Pro 3 – 2 dona;
    - 11.12.2026-y. (5 ta sovrin): iPhone 18 Pro – 1 dona, Apple Watch SE 3 – 1 dona, AirPods Pro 3 – 3 dona;
    - 18.12.2026-y. (6 ta sovrin): iPhone 18 Pro – 1 dona, Apple Watch SE 3 – 2 dona, AirPods Pro 3 – 3 dona;
    - 25.12.2026-y. (5 ta sovrin, final): iPhone 18 Pro Max – 1 dona, iPhone 18 Pro – 1 dona, Apple Watch SE 3 – 2 dona.
24. Tashkilotchi obyektiv sabablar mavjud bo‘lganda, shu jumladan texnik nosozliklar, yengib bo‘lmas kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelganda, huquqiy, operatsion yoki boshqa xavf-xatarlar aniqlanganda, shuningdek Aksiyani o‘tkazishga to‘sqinlik qiladigan yoxud uni kelgusida o‘tkazishni maqsadga muvofiq emas deb topadigan boshqa holatlarda mazkur Qoidalarga bir tomonlama tartibda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek Aksiyani o‘tkazishni muddatidan oldin to‘xtatib turish yoki tugatish huquqiga ega. Aksiya Qoidalariga kiritiladigan o‘zgartirishlar/qo‘shimchalar oldindan, uch ish kuni avval Tashkilotchining rasmiy veb-saytida joylashtiriladi. Tashkilotchi Ishtirokchida Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq holda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar, chiqimlar va har qanday boshqa xarajatlarni qoplamaydi va kompensatsiya qilmaydi.

25. Mazkur Aksiyani o‘tkazish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tashkilotchi va Ishtirokchi o‘rtasida yaxshi niyat va o‘zaro anglashuv asosida muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko‘rib chiqilishi lozim.
26. Aksiya g‘olibi deb topilgan Ishtirokchi Tashkilotchiga o‘z ismi, familiyasi va tasvirlaridan (fotosuratlaridan) reklama maqsadlarida: Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlarida, www.tengebank.uz rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun foydalanishga alohida rozilik berishga haqli.
27. Oldingi bandda ko‘rsatilgan rozilik Sovrinni topshirish vaqtida alohida hujjat bilan rasmiylashtiriladi, Aksiyani o‘tkazish maqsadlari uchun shaxsga doir ma’lumotlarga ishlov berish roziligi bilan bog‘liq emas va ixtiyoriy hisoblanadi: uni taqdim etishni rad etish g‘olibning Sovrinni olish huquqiga ta’sir qilmaydi. Rozilik Ishtirokchi tomonidan istalgan vaqtda Tashkilotchiga yozma murojaat qilish orqali qaytarib olinishi mumkin.
28. Aksiyada ishtirok etish faqat mazkur Qoidalarning barcha talablariga so‘zsiz rioya qilish sharti bilangina mumkin.

VI. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI

29. G‘oliblarni xabardor qilish yutuqli o‘yinning onlayn-translyatsiyasi vaqtida, shuningdek qo‘shimcha ravishda o‘yin o‘tkazilgandan keyin 1 (bir) ish kuni ichida Aloqa markazi qo‘ng‘irog‘i, SMS-xabarnoma va (yoki) Tashkilotchining mobil ilovasidagi bildirishnoma orqali Ishtirokchi tomonidan Bankda ko‘rsatilgan aloqa ma’lumotlari bo‘yicha amalga oshiriladi.
30. Sovrinlarni topshirish «Tenge Bank» ATB Bosh bankida o‘tkaziladi.
31. Sovrinni olish uchun g‘olib pasport yoki uning o‘rnini bosuvchi hujjatni yoxud O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va (yoki) «Ijtimoiy karta» mobil ilovasi orqali taqdim etiladigan shaxsni tasdiqlovchi hujjatning elektron shaklini taqdim etgan holda o‘z shaxsini tegishli hujjat bilan tasdiqlashi shart.
32. JFDL/TK/OQSni moliyalashtirishga qarshi kurashish (ПОД/ФТ/ФРОМУ), korrupsiya va firibgarlik xavf-xatarlarining oldini olish maqsadida, Sovrinlarni topshirish g‘oliblar va ularning operatsiyalarini tekshirish yakunlari bo‘yicha Komplayens-nazorat departamenti (ДКК)ning ijobiy xulosasi olingandan so‘ng amalga oshiriladi.
33. G‘oliblar Sovrinni uning pul ekvivalentiga almashtirishni talab qilishga haqli emaslar.
34. Agar g‘olib Sovrinni olishdan bosh tortsa yoki yutuqli o‘yin natijalari e’lon qilingan paytdan e’tiboran 10 bank kuni ichida uni olish niyatini bildirmasa, Sovrin talab qilib olinmagan, g‘olibning Sovrinni olish huquqi esa yo‘qotilgan hisoblanadi.

VII. AKSIYA ISHTIROKCHILARINI AKSIYANI O‘TKAZISH SHARTLARI, AKSIYANI O‘TKAZISHNI TO‘XTATIB TURISH YOKI MUDDATIDAN OLDIN TUGATISH TO‘G‘RISIDA XABARDOR QILISH TARTIBI

35. Aksiya Ishtirokchilarini uni o‘tkazish shartlari va tartibi to‘g‘risida xabardor qilish Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida va boshqa mavjud kommunikatsiya kanallarida reklama materiallarini joylashtirish orqali amalga oshiriladi.
36. Aksiya haqida batafsil ma’lumot, shuningdek Aksiya Qoidalari Tashkilotchining www.tengebank.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.
37. Aksiya haqida qo‘shimcha ma’lumotni 1245 telefon raqami orqali ham olish mumkin.

38. Aksiyani o‘tkazish muddatidan oldin tugatilgan, uni o‘tkazish muddatlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, tegishli ma’lumot www.tengebank.uz saytida joylashtiriladi.